

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Z.M. BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI
TILSHUNOSLIK KAFEDRASI**

**3-BOSQICH "A" GURUH TALABASI
QODIROVA AROFATNING**

**MATNNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
MAVZUSIDAGI**

KURS ISHI

ILMIY RAHBAR: F.F.D. D.NABIYEVA

ANDIJON 2011Y.

MAVZU: MATNNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

REJA:

I. KIRISH:

PRAGMATIK TAHLILNING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI

II. ASOSIY QISM:

1. MATN VA UNING XUSUSIYATLARI
2. MATN STRUKTURASI
3. MATNNING MAZMUNY XUSUSIYATLARI
4. MATN TAXLILIDA PRAGMENTNING O'RNI
5. MATNDA TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA

III. XULOSA

“Pragmatika” (pragma – ish, harakat) aslida falsafiy tushuncha bo’lib, u Sokratdan oldingi davrlarda ham qo’llanishda bo’lgan va keyinchalik uni J.Lokk E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o’zlashtirganlar. Shu tariqa falsafada pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30- yillarida pragmatizm g’oyalarining keng targ’ibi aniq sezila boshladi. Amerika va Yevropada bu targ’ibotning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, L.Vitgenshteyn kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo’lgan falsafiy pragmatizm yo’nalishining asoschilaridan biri Charlz Pirs edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g’oyasi semiotik belgining ma’no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog’liq holda o’rganishdir. Bu tamoyil muallifi Ch. Pirs birinchilardan bo’lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat subyekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi.

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo’nalishi sifatida o’tgan asrning 60-70-yillarida shakllandi. 1970- yilda Dordrext shahrida “Tabiiy tillar pragmatikasi”(Pragmatics of natural languages) mavzusida xalqaro konferensiya bo’lib o’tdi. Ushbu anjumanda o’qilgan ma’ruzalar to’plamining muharriri, Tell-Aviv universitetining professori I.Bar – Hillelning “So’z boshi”da qayd qilishicha, anjuman ishtirokchilari yakdillik bilan “Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariyasi doirasida o’rganilishi lozim”degan xulosaga kelishdi (Vsr-Hilel 1971: V-VI).

Pragmatikaning “Qayta tuzilish davri” deb e’tirof etilgan xuddi shu paytdan boshlab, xorijiy tilshunoslikda haqiqiy pragmatik ko’tarilish yuzaga keldi. Bu mavzuga oid qator anjumanlar, yig’ilishlar o’tkazildi, chop qilinayotgan to’plamlar, ilmiy tadqiqotlarning chegarasi yo’q, Gournal of Pragmatics tom ma’noda xalqaro nashrga aylandi.

Pragmalingvistikaning predmetini aniqlashga ilk bor ahd qilganlardan biri G. Klaus edi. U pragmatikani “belgilar va ushbu lisoniy belgilarni yaratuvchi, uzatuvchi hamda qabul qiluvchi shaxslar o’rtasidagi munosabatlarni o’rganuvchi” fan sifatida ta’riflaydi. Ushbu ta’rifdan ko’rinib turibdiki, pragmatikaning predmetini aniqlashda G. Klaus ham boshqa semiotiklar kabi belgi va uni idrok etuvchi interpretator munosabatidan uzoqlashmaydi, hatto uning “pragmatika dastlabki o’rinda lisoniy belgilarning psixologik va sotsiologik tomonlarini o’rganuvchi nazariyadir” degan xulosasi ham pragmatika tushunchasini tor ma’noda tavsiflashdan boshqa narsa emas.

J.Layonz tilshunoslarining 12-xalqaro konferensiyasida (Vena,1977) pragmalingvistikaning predmetini aniqlash va uning ta’rifini berishga harakat qildi:”Pragmatika tinglovchini uzatilayotgan axborotni xuddi so’zlovchi istaganidek qabul qilishga undash maqsadi uchun mos keladigan lisoniy birliklarning kommunikatsiyada qo’llanishini tavsiflaydi.Bu pragmatika lisoniy vositalarning shaxslararo muloqatdagi rolini aniqlash bilan shug’ullanadi, deyish demakdir” (Proceedings 1978: 26). Ushbu ta’rifning asosida lisoniy harakatdagi ko’zlanayotgan maqsad va unga erishish vositasi o’rtasidagi munosabat turibdi .

“Sabab – motiv – maqsad” zanjiri nutqiy faoliyat rejasini shakllantiradi va uning voqelanishini ta’minlaydi. Xuddi shu narsa A.Kasherni pragmalingvistik tahlilning asosiy maqsadini “qo’yilgan maqsadga erishishda lisoniy

vositalardan foydalanishni ta'minlovchi insonga xos bo'lgan qobiliyat qoidalarini" yoritish va tushuntirish deb tasvirlashga undaydi. (Kasher 1979: 38)

Pragmalingvistikani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida ajratish va uning o'zgarish ob'ekti, predmetini aniqlash uchun lisoniy birliklardan turli kommunikativ muhitda pragmatik qiymati, "bahosi", mundarijasining namoyon bo'lishini taminlovchi omillarni izlamoq darkor. Lisoniy birliklardan har qanday sharoitda namoyon bo'ladigan belgilari ularning ontologik vazifaviy (funksional) xususiyatlari na'munasidir.

Shunday qilib, pragmatikaning umumiy ta'rifini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalalari o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-sharoitlariga nisbatan, keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi. Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lison tahliliga pragmalingvistik yondashuvning poydevoridir. Aminmizki, pragmalingvistikaning xuddi shu yo'nalishdagi taraqqiyoti nazariy tilshunoslik va amaliy kommunikatsiya o'rtasida mavjud bo'lib turgan "uzilish"larni bir oz toraytiradi.

Pragmalingvistika tadqiqot predmetining keng miqyosda tasavvur etilishi ushbu sohaning turli yo'nalishlarda taraqqiy etishini taqozo etadi. Natijada, pragmalingvistikaning nutqiy akt nazariyasi, deysis nazariyasi, diskurs nazariyasi, pragmasemantika, pragmatistika kabi o'z "ichki" sohalari yuzaga keldi. Bu sohalarning farqi, birinchi navbatda, pragmalingvistikaning umumiy predmetini alohida qismlarga ajratish va har bir qismning batafsil yoritilishi, o'rganilishida namoyon bo'ladi.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va ta'riflashda mutaxassislar o'rtasida yagona fikr yo'q, aksincha, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki xil qarash mavjud. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Masalan, rus tilshunosi L.M.Loseva "matn" tushunchasi aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo'lgan belgilardan kelib chiqish lozimligini aytadi va bu belgilarning birinchisi sifatida uning yozma shaklda bo'lishini alohida qayd etadi.⁹⁸ Matnni lingvistik tadqiqot ob'ekti sifatida rus tilshunosligida ilk o'laroq batafsil o'rganganlardan biri I.R.Gal'perin "matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlar"dan biri sifatida "yozma xujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik"ni alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir.⁹⁹ Ammo matnning yozma yoki og'zakiligi uning ontologiyasi va funksiyasiga nechog'lik bog'liq yoki bog'liq emasligini muallif tomonidan aniq-tiniq ko'rsatib berilmagan. Matnning mohiyati va kommunikatsiya jarayonida baradigan vazifani faqat yozuv bilan chegaralanadigan bo'lsa, bu yirik kommunikativ birlikning tildagi o'rni qanday belgilanishi haqidagi masala ochiq qolgan.

O'zbek tilshunosligidagi bu yo'nalishdagi ishlarga e'tibor qilinsa, ularda ham yuqoridagiga o'xshash mulohazalar yo'q emas. Masalan, M.Hakimovning nomzodlik dissertatsiyasida mana bunday fikrlarni o'qish mumkin: "....Nutq-

bu so'zlovchining nutqiy jarayoni bilan aloqador bo'lgan hodisa sifatida ifoda etilsa, matn (tekst) ham mana shu nutqiy hodisaning yozilgan ("bosma harf orqali aks etgan") parchasidir...."Nutq" o'zining yozma shaklida "matn" atamasiga teng keladi....Har qanday nutqning yozma shakli matn tushunchasi mohiyatini ifoda etadi....Tekst – og'zaki nutq, kontekstga nisbatan stabillashgan, ma'lum qoida, qonuniyatlar adabiy til me'yorlari asosida shakllangan yozma nutq....Matn bir vaqtning o'zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o'rtasidagi aloqa munosabatini yuzaga chiqaruvchi vositadir."¹⁰²

Avvalo, aytish joizki, kishilar o'rtasidagi aloqa kommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan, matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi.

⁹⁸ Loseva L.M.

Ko'rsatilgan asar. 4-bet

⁹⁹ Gal'perin I.R Ko'rsatilgan asar. 18-bet

Sintaksisning asosiy birligini gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliy sintaktik-kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn lingvistikasining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapnigina gap deb, og'zaki nutqdagi gapni gap bo'lolmaydi deyish to'g'ri bo'lmasligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q, albatta. Agar faqat yozuvda ifodalangan yaxlit nutqnigina matn deyiladigan bo'lsa, mantiq gapni ham faqat yozuvdagisiginigina tan olish kerakligini taqozo etadi. Ammo buning mumkin emasligi tabiiy.

Og'zaki nutqning bir yo'nalishliligi yozma, (harflar yoki magnit tasmasida) nutq (matn)ning ko'p yo'nalishliligi, og'zaki nutqning "qaytishsizligi", yozma nutqning esa "qaytishligi", ya'ni uning istalgan bo'lagiga har qachon qaytish mumkinligi haqidagi da'vo-dalil ham asosli emas. Chunki bu "qaytish" tushunchasi faqat vizual-amaliy mohiyatga ega, nutqiy asar (matn)ning mohiyatiga aslo dahldor emas. Agar faqat yozma nutqdagi na oldingi qismlarga qaytish mumkin-u og'zaki nutqiy yaxlitlikda uning oldingi qismlariga qaytishning imkoni bo'lmasaydi, unda hech qanday og'zaki nutqni tushunish, demakki,og'zaki nutqiy kommunikatsiya mutlaqo mumkin bo'lmasdi. Chunki so'zlovchi muayyan yaxlit bir fikr, mavzuni og'zaki bayon qilar ekan, ayni bayon jarayonining har bir onida uning o'zi ham, xuddi shuningdek, tinglovchi ham mazkur nutqning oldingi istalgan parchasiga qayta oladi, balki oldingi qismlar ularning xotirasida turadi. Agar shunday bo'lmasa, ya'ni nutq butunligicha ham so'zlovchining, ham tinglovchining xotirasida turmasa, nutqni tuzish ham, uni mazmunini anglash ham imkonsiz bo'ladi. Tabiiyki, so'zlovchi ayni talaffuz jarayonidagina o'z nutqiga hokim bo'lsa, tinglovchi nutqning ayni eshitib turgan onidagi parchasinigina tushunsa, nutqning oldingi qismlari ularning har ikkisining ham "esidan chiqib qolaversa", ular bir-birlarini tushunish imoniyatidan tamomila mahrum bo'lib qolaveradi. To'g'ri, og'zaki nutqning esa

¹⁰² Xakimov M.X O'zbek ilmiy matning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. Fan n-didiss. Toshkaent, 1993. 17,18,21-betlar.

zamon nuqtai nazaridan chegaralanmaganligini hech kim inkor etmaydi, ammo bu og'zaki nutqni eslash, xotirada saqlash, umuman, uni yoki uning muayyan parchalarini tiklash ilojsiz degani emas.

Dunyoda biron-bir, kattadir-kichikdir, xalq yoki qavm yo'qki, uning necha asrlardan beri og'zaki shaklda avlodidan-avlodga o'tib yashab kelayotgan rang-barang so'z san'ati durdonalari bo'lmasin. Masalan, bir qo'shiq yoki ertakni faqat qog'ozga yoki magnit tasma-siga (yoki multimedia shakliga) tushirilganda matn, ammo og'zaki shaklida matn bo'la olmaydi deyish matn tushunchasini til doirasidan tashqariga chiqarib yuborishi tayin. Og'zaki nutqiy asarni muayyan vositalar (yozuv, magnit tasmasi, multimedia kabi) yordamida qayd etish axborotning zamon va makonda saqlanishini ta'minlash imkoniyatlaridir, lekin, garchi yozma nutq muayyan tayyorgarlik bilan amalga oshiriladi, shuning uchun u ravon va ishlangan nutq deyilsa-da, buning til birliklarining tabiatiga bevosita jiddiy o'zgartirish kiritadigan ta'siri to'g'risida gapirib bo'lmaydi.

Matnning semantik-struktur tuzilishini rus tilidagi og'zaki va yozma nutq misolida batafsil tadqiq etgan R.A.Karimov doktorlik dissertatsiyasida matn faqat grafik, yozma shakldagina emas, balki og'zaki shaklda ham namoyon bo'ladigan nutqiy asar ekanligini, bunda og'zaki shakl genetik asos ekanligini alohida ta'kidlaydi va faktlarning tahlillaridan kelib chiqqan holda "bir qarashda matn makonining qarama-qarshi nuqtalarida joylashganday ko'rinadigan og'zaki spontan matn va yozma matn (badiiy matn) umumiy xususiyat-muayyan tuzilishga ega" degan nazariy xulosaga keladi.¹⁰³ Shubhasizki, og'zaki nutq birlamchi, yozma nutq esa ikkilamchidir, shuning uchun ham yozma matn uchun og'zaki nutqning "genetik asos" bo'lishi aksiomadir. Bu o'rinda O.V.Dolgovaning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Inson nutqi – bu eng avvalo tilning tovushli shaklidir....Filolog uchun tovushli nutqni o'rganish zarurligi haqidagi fikrning barqarorlashuvi og'zaki va yozma nutq munosabati muammosini hal qilishdagi birinchi qadam bo'lgan. Til yashash shaklining faqat bir, ya'ni yozma shaklini tadqiq etish bilan ob'ektni (...)cheklash mumkin emas... Fanning istiqboldagi muvaffaqiyatli taraqqiyoti uchun rivojlangan adabiy tilda yozma va og'zaki shakllar bir butunlikdaligini va ular ichki nutq orqali bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini aniqlashtirib olish muhimdir.Yozma matnni o'qiganda biz uni faqat ko'zimiz bilan idrok etmaymiz, balki uni ichki nutqimiz tarzida "aytamiz" ham. Yozuvda bir qator eng sodda sintaktik munosabatlar punktuatsiya orqali ifodalanadi. Har qanday matnning yozma shakli, uning ontologiyasi tirik insonlarning mavjudligiga bog'liq,ular yozma matnga qarab, o'zlarining ichki nuqtalari (...)da uning talaffuzini aks ettira oladilar. Ichki nutq haqidagi ta'limotsiz mohiyatan tilshunoslik umuman mavjud bo'la olmaydi."¹⁰⁴Demakki, tovushli nutq diqqat markazida turmas ekan, matnni ilmiy o'rganish, matn nazariyasini tasavvur etish, matn lingvistikasini rivojlantirish mumkin emas.

Matnning ham til, ham nutq birligi ekanligi haqidagi qarash, yuqorida ta'kidlab o'tkanimiz kabi, tadqiqotchilarning asosiy ko'pchiligi tomonidan tan olingan. Gap qoliplari tilda mavjud bo'lgani-singari til sistemasida matn yaratishning ham umumiy qoidalari, qoliplari, "formulalari"¹¹⁰bor. Mazkur qoliplar asosida nutqda matn yaratiladi. Shuning uchun ham gap qanchalik ham til, ham nutq hodisasi bo'lsa, matn ham shunchalik ham til, ham nutq hodisasidir. To'g'ri, gapga hos qonuniyatlar, qoidalar, kategoriyalarni matnga bevosita tatbiq etish mumkin emas. Chunki aytilganiday, matn gapdan yirik, oliy kommunikativ birlik va uning yaratilishida mutlaqo farqli qonuniyatlar

amal qiladi. O.L.Kamenskaya juda o'rinli ta'kidlaganidek, matn strukturasi til qonuniyatlari bilan chegaralanishi bir qadar kuchsiz, ayni shu xususiyat ancha katta hajmdagi matnda eng murakkab fikr-g'oyani batafsil bayon qilishga imkoniyat beradi. Lekin matn strukturasi til qonuniyatlari bilan kuchsiz chegaralangan bo'lishiga

¹⁰³Karimova R.A Semantiko-strukturnaya organizatsiya teksta (na materiale ustnih spontannih tekstov): Avtoref. diss. ...d-ra filol. Nauk.-M., 1992. S. 6,27.

¹⁰⁴ Dolgova O.V. Sintaksis kak nauka o postroenii ruchi.- M.: Vishaya shkola, 1980. C.40-41.

qaramasdan, uning uzvlari o'rtasidagi aloqa majburiydir, ayni paytda bu aloqa o'ziga xos xarakterga ega. Matnlarni tuzishning umumiy qoidalari, albatta, bor, biroq bu qoidalarining tabiati gap tuzish qoidalaridan nisbatan kuchsiz qat'iyligi bilan farq qiladi.¹¹¹ Ammo til va nutqqa munosabati masalasida gap va matn o'rtasida muayyan o'xshashlikning borligi tabiiy.

Nemis tilshunosi V.Dressler til sistemasining birligi bo'lgan matnni ("tekstema", "potensial matn", "konkret talaffuz qilingan matn", "etik matn") farqlash lozimligini alohida ta'kidlaydi.¹¹² M.Xellidey tilning matn yaratuvchilik vazifasini tilning boshqa asosiy vazifalari qatorida unga organik xos bo'lgan vazifa sifatida qaraydi va uni faqat nutq doirasi bilan chegaralab bo'lmasligini aytadi.¹¹³ Umuman, aytish, mumkinki, matn ham til birligi, nutq birligidir degan qarash bugun ancha keng tarqalgan.

Tilshunoslikda til strukturasi sathlari masalasi har qanday tadqiqot uchun muhim ekanligi ma'lum. Til tadqiqi jarayonida tahlilning turli bosqichlarida fonologik, morfologik, sintaktik va leksik-semantik sathlar farqlanadi.¹¹⁴ Matn mazkur sathlar iyerarxiyasida qayerdan joy oladi ? Umuman, matn til strukturasi alohida sathi bo'la oladimi?

Uzoq vaqtlar, matn lingvistikasi keng rivoj topgunga qadar tilshunoslikda bu masalada bir fikr ustuvor edi, ya'ni til birliklarining iyerarxik (pog'onali) strukturasi oliy birlik sifatida gap e'tirof etilgan. Masalan, mashhur fransuz tilshunosi E.Benvenist gapni segmentlash (bo'laklarga ajratish) mumkinligini, ammo uni biron-bir boshqa yuqori sath birligining tashkil etuvchisi sifatida qarab bo'lmasligini ta'kidlaydi va shunday deb yozadi: "Gap faqat biron-bir

¹¹⁰ Barxudov L.S. Tekst kak edinisa yaziqa I yedinisa perevoda // Lingvistika teksta. Material nauchno'y konferensii.-M.,1974.S.40-41.

¹¹¹ Kamenskaya O.L. Ko'rsatilgan asar. 53-bet.

¹¹² Bu haqda qar: Moskalskaya O.I.Ko'rsatilgan asar 11-bet.

¹¹³Xellidey M.A.K. Mesto "funktionalnoy perisvektiv predlojeniya" (FFP) v sistemi lingvisticheskogo opisaniya // Novoe v zsrubejnoj lingvistike. Vip. 8. Lingvistika teksta.-M.: Proress.1978.C.143.

¹¹⁴Koduxov V.I. Urovnik yazika // Russkiy yazik. Ensiklopediya.-M.: Sov. Ensiklopediya, 1979.S. 359-360.

boshqa gapda oldin yoki keyin kelishi, ular bilan ketma-ketlik munosabati bo'lishi mumkin. Gaplar guruhi gap sathiga nisbatan alohida sath birligini shakllantira olmaydi. Kategoremantik (gap) sathdan yuqorida joylashgan til sathi yo'q."¹¹⁵

Rus tilshunosi M.Y. Blox til birliklari va til sathlari munosabatini yaxlit sistema tarzida tadqiq etar ekan, tilning eng kichik birliklaridan tortib, eng yirik birligi –matngacha bo'lgan iyerarxiyaning mohiyatiga alohida e'tibor

beradi. Ayniqsa, gap va matnning til sathlariga munosabati masalasida aniq va asosli fikrlarni bayon qiladi. U gapni sath shakllantiradigan birlik sifatida “propozema” deb nomlaydi (gapning semantik asosini ifodalovchi “propozeisiya” soʻzidan) va propozematik sath til belgisi propozematik sath ustida mustaqil gaplarning sintaktik birikuvi natijasida shakllanadigan “suprapropozetik sath” tuzilishini aytadi.¹¹⁵ Mazkur ikki sathni nomlashda (“propozematik” va “suprapropozetik”) muallifning umumlashtiruvchi jihat, yaʼni har ikkisi ham propozemani nazardan qochirmaganligi diqqatga sazovar.

Baʼzi tadqiqotchilar matnga alohida sath sifatida qarash mumkinligini aytadilar, ammo ayni paytda matn tilning emas, balki nutqning sathi boʻla olishini taʼkidlaydilar. Bunda matnning nutq jarayoni hodisasi sifatida sistemaliligiga urgʻu beradilar. Bunday talqindan kelib chiqiladigan boʻlsa, tabiiyki, mantiqan matnga til hodisasi emas, balki faqat nutq hodisasi sifatida qarash lozim. Holbuki, matnning mohiyatan, eng avvalo, til hodisasi ekanligi bugungi matn lingvistikasida deyarli eʼtirof etib boʻlingan bir haqiqatdir. Shuningdek, matnning asosiy va birlamchi til belgisi ekanligi haqidagi qarash ham tilshunoslikda turgʻunlashgan. Shuning uchun ham matn faqat nutq sathiga oiddir degan fikrga qoʻshilish qiyin. Bu

¹¹⁵ Benvenist E. Urovni lingvistikeskogo analiza // Novoe v lingvistike. Vip. 4. - M.: Izd-vo inostrannoy lit-ri, 1965. S. 446-447.

¹¹⁶ Blox M. Y. Teoreticheskiye osnovy grammatiki. - M.: Visshaya shkola, 1986. S. 47.

munosabat bilan O. L. Kamenskayaning “Matn va kommunikatsiya” nomli kitobida til sistemasida alohida matn sathining mavjudligini koʻrsatish maqsadidagi bir qiyosini shu oʻrinda keltirish joiz. Uning fikricha, til birliklarining kommunikativ vazifani bajarishdagi ishtiroki darajasi ham til sistemasini pogʻonalashtirish uchun asos hisoblanadi. Ana shundan kelib chiqqan holda u til sistemasidagi sathlarni ajratish va asoslashning maqbul tamoyillaridan biri til strukturasining bilim strukturasiga bilan qiyoslash mumkinligini aytadi. Uningcha insoniyat toʻplagan bilimlarning hajmi favqulodda ulkan va bu bilim muayyan tarkiblanishga ega. Bilim strukturasiga modelida eng yuqori umumlashgan sathni shartli ravishda dunyo haqidagi jami bilim deyish mumkin. Dunyo haqidagi jami bilim konkret fanlar bilim sohasiga, shuningdek kundalik turmush bilimlariga ajraladi, bu eng yuqoridan keyingi quyi sath boʻladi. Har qanday bilim sohasidagi konkret bilim hamisha tarkiblangan boʻladi. U ayrim ilmiy qoidalar va faktlar-mazkur modelda yana bir sathni tashkil etuvchi “bilim fragmentlari” dan tarkib topadi. Bilim fragmentlari, oʻz navbatida mazkur modelda yana bir alohida sathni tashkil etuvchi ayrim hukmlar-muayyan obyektlar va ular oʻrtasidagi munosabatlar haqidagi bilimlardan tuziladi. Hukmlar esa bilimning yanada quyi sathini yuzaga keltiruvchi tushunchalar-obyektlar yoki ular oʻrtasidagi munosabatlar haqidagi elementar bilimlardan hosil boʻladi. Tushunchalar, oʻz navbatida, keyingi sath elementlarini yuzaga keltiruvchi tugallanmagan tushunchalar-obyekt yoki munosabatlar haqidagi tugallanmagan bilimlardan tashkil topadi. Keyingi, aytish mumkin boʻlsa, soʻngi sath esa tushunchalarni farqlash sathidir.

Ana shu mulohazalardan kelib chiqib, matnni gaplar ketma-ketligining bogʻlanishlilik asosida ogʻzaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur, mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik sifatida, til

sintaktik sathining oliy darajadagi birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq.

Badiiy matnning quyidagi mazmuniy turlarini belgilash mumkin: 1.Hikoya mazmunli matn. 2.Tasviriyl matn. 3.Izoh mazmunli matn. 4.Didaktik matn. 5.Xabar mazmunli matn. 6.Buyruq-istak mazmunli matn. 7.Hissiy ifoda mazmunli matn.

Lekin shuni ham ta'kidlab o'tmoq joizki, ushbu turlarning faqat bittasi asosida shakllantirgan badiiy matnni kamdan-kam hollarda uchratish mumkin bo'ladi. Badiiy asar tarkiblanish jihatidan ham, mazmun jihatidan ham o'ta murakkab tuzilishga ega bo'lganligini bois, unda matnning barcha mazmuniy turlarini yoki ma'lum bir turining ayrim xususiyatlarinigina uchratish mumkin. Shuning uchun biror asarning matn turini aniqlashda asarning umumiy ruhiga va yozuvchining asl maqsadiga e'tibor qaratish lozim. Yozuvchi ushbu matn orqali nima demoqchi ekanligi, qanday fikrni ilgari surmoqchi ekanligi va maqsadiga erishish uchun qanday ifoda tarzini tanlanganligini aniqlash hamda qanday matn turlaridan foydalanganligini o'rganish zarur hisoblanadi.

Hikoya mazmunli matnda muallif yoki asar qahramoni o'zi boshidan o'tkazgan, eshitgan, o'qigan yoki guvoh bo'lgan biror bir voqeani hikoyani hikoya qilib beradi. Xotiralar, esdaliklar, ertak va rivoyatlarni hikoya mazmunli matn sifatida baholash mumkin. Hikoya tarzi, asosan, o'tgan zamon shaklida, birinchi shaxs birlik yoki ko'plikda ifodalanadi. Hikoya qilinayotgan voqea-hodisa tor yoki keng qamrovli bo'lishi mumkin. Sekin-asta rivojlanib boruvchi izchil bayon va yaxlitlovchi ohang kuzatiladi. Asosan, biryoqlama ifoda uslubidan foydalaniladi, ya'ni matn shakllanishida, asosan, hikoya qiluvchi (roviy) yetakchi faktor hisoblanadi. Monologik nutq ko'rinishi bunday matnlar uchun juda mos va qulay bo'ladi. Albatta, o'rni bilan dialogik nutq ko'rinishlariga murojaat qilinganligi ham kuzatiladi. Shunda ham hikoya matnining motivasion butunligi roviyga bog'liq bo'ladi. Bu tip matnlarda hikoya mazmuni yetakchilik qilsa-da, tasviriyl, izoh, xabar, hissiyl ifoda mazmunli matnga xos xususiyatlar ham birdagina ishtirok etishi mumkin. Bir-ikki misol:

“Duogo'y”. Said Ahmad aka boshchiligida bir guruh adiblar olis tog' qishlog'iga yetib bordik. Mehmonga chaqirishdi. Uy to'la odam. Davra boshida to'rvadek soqoli ko'ksiga tushgan qariya o'tiribdi. Hamma unga ta'zim bajo qiladi. Davraga kim kelib qo'shilmasin chol uzundan-uzoq duo o'qiydi. “Sen ham mening yoshimga yetib yurgin, bacham”, deb fotiha tortadi.

Bir xil duo takrorlanavergach, Said Ahmad aka so'radi:

- Necha yoshga chiqdingiz, taqsir?

- Menba? – dedi chol salmoqlab. – Ikkam yetmishga bordim.

- Voy bo'-o'-o'!-dedi Said Ahmad aka bosh chayqab. – Agar sening duoning mustajob bo'lsa, men sakkiz yil avval o'lib ketishim kerak ekan-da, ukam? Men yetmish oltiga chiqdim! Turaqol endi, joy almashamiz! (O'.Hoshimov)

Yo'li topildi. Erkin Vohidov universitetni endi bitirgan paytidayoq taniqli shoir edi. O'zingiz bilasiz, oliy o'quv yurtini bitirgan odam oldida uylanish muammosi ko'ndalang bo'ladi. Shu masala yuzasidan Erkin aka Said Ahmad akaga maslahat solibdi.-Oqsaqol, -debdi.-Xabaringiz bor, bir-ikkita kitobim chiqdi. Uch ming so'mcha pulim ham bor. Lekin qaysi biriga yetkazishni bilmayapman. Mashina olaymi, uy solaymi, xotin olaymi? Mashina olsam, uy sololmayman, uy solsam uylanolmayman, uylansam, mashinaga pul qolmaydi... Nima qilay?

Said Ahmad aka peshanasinini Rashid abzining garmoniday tirishtirib, chuqur va uzoq o'yg'a tolibdi. Oxiri chehrasi yorishib bunday debdi:

-Bolam, men xo'p o'yladim. Hisoblab ko'rsam, uch ming so'm puling hammasiga yetarkan. Maslahat shuki, sen avtobus sotib olgin! Avtobus degani mashina bo'ladi. Rulini qayoqqa bursang ketaveradi. Bu – birinchidan. Avtobusning ichi keng-mo'l bo'ladi. Ko'ch – ko'roningni olib kirsang tayyor uy bo'ladi. Bu- ikkinchidan. Uchinchidan, rostki avtobus bo'lgandan keyin ichida konduktori ham bo'ladi. O'sha konduktorni xotin qilib olib qo'ya qolasan!... (O'.Hoshimov)

Berilgan matnlarda ikki xil holatni kuzatish mumkin. Birinchi matnda yozuvchi o'zi bevosita guvoh bo'lgan voqeani hikoya qilyapti, ikkinchi matnda muallif eshitib ta'sirlangan voqeasini so'zlayapti. Hikoya mazmunli matn boshqalarga qaraganda murakkab tarkiblangan bo'ladi.

Tasviriy matn tinglovchiga noma'lum bo'lgan biror kishi, joy, hayvonot va nabotot olamiga mansub mavjudot yoki qandaydir narsa-buyum hamda voqea-hodisani batafsil tasvirlab berish maqsadida tuzilgan bo'ladi. Tasviriy matnda ham monologik nutq ko'rinishi yetakchilik qiladi. Partominik tasvir bunday matnning eng harakterli xususiyati xisoblanadi. Ya'ni tasvirlanayotgan ob'ektning dastlab birlamchi xususiyati tilga olinadi. Keyin unga aloqador xususiyatlar va qismlardan yuritiladi. Masalan:

Yakan degan o'simlik bo'ladi. Nima uchundir san'atkorlar, aniqrog'i, otarchilar pulni "yakan" deyishadi. Aslida esa yakan – qamishzorda o'suvchi o'simlik, Yakanni o'rib olib, quritib uzumga osadilar yoki savat qalpoq to'qiydilar. Ma'lumki, qamish uzun, yakan esa, aksincha, pastak o'simlik. Shunday bo'libdiki, bir kuni yakan qamishga qarab:

Qamish unga qaragisi ham kelmabdi, javob bermay burnini jimirib qo'ya qolibdi. Vaqti-soati kelib avval qamishni, so'ng yakanni o'ribdilar. Tasodifni qarangki, o'sha qamishdan yasalgan bo'yroni bir uyga to'shabdilar. Tasodifni qarangki, shu uy to'sinlariga uzumlarni osibdilar, yakandan to'qilgan savat qalpoqlarni esa devordagi qoziqlarga ilibdilar. Oradan kunlar o'taveribdi. Qamish pastga, oyoq ostida, yakan esa tepada ekan. Oyoqosti bo'laverib xo'rlangan qamish axiyri yakanga qarab zorlanibdi:

Bu zorlanishni eshitib yakan debdikim:

- Siz bekorga g'o'ddaydingiz. G'o'ddayib o'saverdingiz. Ichingiz g'ovak ekanini unutdingiz. G'ovak bo'lganingiz uchun emas, siz o'sgan yerda ildizingiz qolgan. Siz o'sajak qamishlarga yetkazing. Sizning holingizga tushmasinlar.

Qamishning ba'zan tomga ham to'shaydilar. Lekin baribir uning basharisiga loy chaplanadi.... (T.Malik.)

Keltirilgan matnda yakan deb nomlanadigan bir o'simlik tasvirlangan. Buni tasvir ob'ekti deymiz. Uning o'simlik ekanligi haqidagi axborot birlamchi xususiyat hisoblanadi. Uning qanday o'simlik ekanligi haqidagi axborot aloqador xususiyat hisoblanadi. Bu matnda aloqador xususiyat deb ataluvchi qism boshqa o'simlik bilan bog'liq tasvir fonida yanada ravshan ifodalangan.

Badiiy asarda inson ma'lum bir muhit va uni qurshab turgan olam bilan birgalikda tasvirlanadi. Qahramon faoliyat ko'rsatadigan muhit, shart-sharoit yozuvchilar tomonidan imkon qadar batafsil, detallashtirilgan holda tasvirlanadi. Lekin narsalar tasviri badiiy asarda dekorativlik vazifasinigina bajarmasligi lozim. Ba'zi yozuvchilar narsalarning uzundan-uzun bayoni orqali go'yo tasvirni jonlantirmoqchi bo'ladilar, aslida esa asarning o'jizligini yashirganday bo'lib, vaznini og'irlashtiradilar, xolos.

Izoh mazmunli matnda aytiladigan fikrning ishonarliligini ta'minlash uchun turli dalil va izohlar keltiriladi. Asoslash, isbotlash, o'zini oqlashga urinish yoki himoya maqsadida har xil dalil yoki vajlarni keltirish izoh mazmunli yoki argumentli matn turining o'ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Fikr bilan keltirilgan dalil o'rtasida mantiqiy bog'liqlikning bo'lishi muhim sanaladi. Bunday matnda chunki, zero, aslida, shuning uchun, to'g'risini (ochig'ini, rostini) aytganda, eshitishimga qaraganda, bilishimcha, taxminimcha kabi birliklar qo'llanilganligini ko'ramiz. Kitobxonni yoki tinglovchini ishontirish asosiy maqsad bo'lganligi uchun shunga mos ritorik uslub tanlanadi. Badiiy tasvir vositalaridan foydalaniladi. Gaplarning, to'g'rirog'i, mikromatnlarning o'zaro zich bog'langanligi va ta'kid oxangi sezilib turadi. Masalan, quyidagi parchaning ikkinchi obrazi ana shunday odamlarning tirnoqcha "nuqson" nini ham tuyadek qilib ko'rsatar edi: umuman, izoh mazmunli matndir:

Men uning boshlig'iga sodiqligi uchun besh ketdim. Ammo bir andisha g'ashimni keltirdi: ilgari, huv ilgari shunaqa deyishsa, e'tiroz bildirmas edim.

Chunki rayko'm kotibi – hokim, xoqon edi! Panada bilganini qilib, ochiqda xo'jalik rahbarlarining restoranga kirishi istisno hol edi. Ammo hilvat go'shalarda ular qilgan ishni o'sha xonlar ham qilolmagan-ov...(Sh.Xolmirzaev, "Quyosh-ku falakda kezib yuribdi" hikoyasi)

Didaktik matn o'quvchi yoki tinglovchiga pand-nasihat qilish, uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishga o'rgatish niyati bilan tuziladi. Sharq adabiyotshunosligida alohida didaktik adabiyot tushunchasi ham mavjud.

Masalan, A.Avloniyning "Turkiy guliston yohud ahloq" asaridagi quyidagi she'rni ana shunday matn deyish mumkin:

*G'azablik bo'lmog'il, bo'lg'il muloyim,
Bo'lursan shodu xurramlikda doim.
G'azab o'tdur, yoqadur jismu joning,
G'azab barbod etadur xonumoning.
G'azablik o'tni bo'sh suv past qilg'ay,
G'azabni jinni yoki mast qilg'ay.*

Maqol, aforizm, masal, rivoyatlar, turli hayotiy voqealar asosidagi didaktik hikoyatlarni ham didaktik matn deb qarash mumkin, zotan, ulardan mazmunning mohiyatida tarbiya, pand-nasihat, didaktika yotadi. Shuning uchun ham ularni didaktemalar tarzida umumlashtirish mumkin.

Badiiy matnda muayyan maqsad bilan qo'llanilgan didaktemalarning matn ichiga singdirilish tarzi ham turlicha bo'ladi. Muallif bunday didaktemalarni matnga to'g'ridan-to'g'ri olib kiradi va uning qaysi janrga taalluqli ekanligini aytib o'tadi. Didaktemalar matn tashqarisida avvaldan tayyor holda mavjud bo'ladi. Muallif yoki qahramon nutqida quyidagi ifoda shakllari ishlatiladi: *shunday maqol bor, mashoyixlar demishlarki, ulug'larda shunday gap bor, derlarkim, shunday rivoyat eshitganman* va hokazo.

Xabar mazmunli matn biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuziladi. Tabiiyki, badiiy matndagi xabar mazmuni o'ziga xos tarzda bo'ladi, u oddiy xabardan, oddiy informativlikdan farq qiladi. Estetik maqsad yuklangan bo'ladi. Boshqa matn turlari bilan qorishgan holda keladi. Masalan, Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romani yakunida shunday bir xabarni keltiradi:

Keyingi Marg'ilon borishimda yaqin o'rtoqlardan Yodgorbek to'g'risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o'n to'qqiz va yigirmanchi ochlik yillari muyonasida vafot qilib, undan ikki o'g'il qolibdir. O'g'illaridan bittasi bu kunda Marg'ilonning mas'ul ishchilaridan bo'lib, ikkinchisi Farg'ona

bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o'lik-tirigi ma'lum emas, deyilar.

Bu xabar mazmunli matn hisoblanadi. Lekin asar ichida emas, balki asarga ilova sifatida keltirilgan. Asar qahramonlarining hayotdan olinganligini ta'kidlash, bunga kitobxonni ishontirish istagi bilan kiritilgan. Bu haqda asar avvalida ham yozuvchi alohida ta'kidlagan: *"Xalqimizni shu zamonning" Tohir-Zuhra*"lari, *"Chor darvesh"*lari, *"Farhod-Shirin"* va *"Bahromgo'r"*lari bilan tanishdirishga o'zimizda majburiyat his etamiz". Balki, yozuvchi ushbu qahramonlar taqdiri qanday kechganligi haqida kitobxonlarga xabar berishni xohlagandir, balki, romanni davom ettirajagini, agar davom ettirilsa, voqealar shu mazmunda bo'lishi mumkinligi haqida xabar berayotgandir. Bu bizga qorong'u, lekin keltirilgan matn xabar mazmuniga ega.

Buyruq-istak mazmunli jihatdan buyruk maylidagi fe'llar ko'proq qo'llanadi. Asosan, qahramonlar nutqida kuzatiladi. Lekin muallif nutqida istak, maslahat yoki tavsiya ma'nosida qo'llanilishi ham mumkin. Masalan:

Bir narsani orzu qilaman. Bu dunyoda men qilgan yaxshi ishlardan aqalli bitta ko'proq yaxshilik qilsang.... Bu dunyoda men qilgan xatolardan aqalli bitta kamroq xato qilsang.-... (O'.Hoshimov).

Hissiy ifoda mazmunli matn insonning ichki kechinmalarini, voqelikka munosabatini, o'ziga xos pafos bilan ifodalash maqsadida tuziladi. Masalan:

Erta bahor-cheksiz sog'inchning ufqi. Muzga aylanishdan bosh tortgan isyonkor tomchilar yomg'ir bo'lib to'kilmoqda. Yomg'irning daraxtga, kurtakning tomchiga aytadigan "shiviri" yig'ilganey-yig'ilgan. Xo'ngrab-xo'ngrab, bo'zlab-bo'zlab dil rozini aytayotgan erta bahor buluti aslida osmon dardidan so'z ochishga botingan asov g'alayon. Nish urmish kurtakka nasib etgan yomg'ir tomchisi ko'kning beqiyos ehtirosi parchasi. Yomg'ir "shiviri" umidlarga to'la daraxt ta'zimiga kutilmaganda duch kelsa, bu ajib bir shodonlik tavalludi. Aslida bu "shivir-shivirlar" rishta xolos. Aslida ulkan osmonning jajji zaminga aytadigan dardi ko'p-ey... Zamin esa dil izhorini minnatdor tinglar ekan, jajji daraxtlari, endi unajak o't-o'lani-yu, chambar gullari-la ta'zim etadi.

Yeru-osmon, daraxtu yomg'ir, nish urish orzusidagi kurtagu, unga lab tegizgan tomchi, ko'kdagi bulutdan barqini kutgan maysalar, chechaklar yamoqchi sog'inch dardida butun bo'ladilar endi. Bilaman, zamin-u falak visoli xayoliy ufqsagina namoyon. Bilaman... Ammo... Qalbim zulflariga urilgan shivir-shivirlarni sezmaslikni eplay olmayapman. Sog'inch- umrim yamog'i... (Yo. Akram)

Badiiy matnning mazmuniy turlarini umumlashtirgan holda tavsifladik. Aytib o'tilganidek, bu turlar yaxlit matnda aksar hollarda qorishiq, sintezlashgan tarzda namoyon bo'ladi. Bu mazmuniy turlarning barchasi badiiyatdagi yagona bosh maqsad – estetik ta'sir qilish maqsadida bo'ysundirilgan bo'ladi.

Pragmatika nutqiy ta'sir natijasining hosil bo'lish ehtimolini belgilovchi vositalarni aniqlash imkonini beradi. Bunday vositalar qatoriga masalan, pragmatik mazmunni aniqlashtiruvchi illokutiv fe'llar kiradilar. Ushbu fe'llar nutqiy harakat tarkibida muhim rol o'ynaydilar, ular muloqot maqsadi mazmuni va bajarilayotgan nutqiy harakatning illokutiv kuchini aniq va ochiq ko'rsatish xizmatini o'taydilar. Masalan, *"Kumushni ertaga kinoga olib boraman"* gapining talaffuzi vositasida va'da berish nutqiy harakati bajariladi, ammo ushbu harakat mazmunini aniq ifodalash uchun illokutiv fe'lni qo'llash imkoni ham bor: *"Kumushni ertaga kinoga olib borishga va'da beraman"*. Xuddi shuningdek, *"Dars qilmaysanmi?"* sintaktik birligi so'roq, talab,

ogohlantirish, taklif kabi nutqiy harakatlarni ifodalashi quyidagi yo'sinda aniqlashtirilishi mumkin: *"Dars qilmaysanmi, deb so'rayapman (sendan)"; "Dars qilmaysanmi? Buni sendan talab qilaman" (o'qituvchining so'zi); "Dars qilmaysanmi? Seni ogohlantiriyapman"; "Dars qilmaysanmi? (kel, birgalikda qilishga taklif qilyapman)"*.

Illokutiv fe'llarning ma'no tartibida talaffuz etilayotgan nutqiy birlikning (gap yoki matnning) pragmatik- kommunikativ mazmunini ifodalovchi sema asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, *"Fan nomzodi R.Suvono'vaga dotsentlik unvoni berishiga qarshiman"; "Fan nomzodi R.Suvono'vaga dotsentlik unvoni berilishini talab qilaman"* kabi tuzilmalar bir xil propozitsiyaga ega, ularni farqi faqatgina pragmatik mazmunda, ya'ni turli nutqiy harakatlar ifodalanishida va kommunikativ maqsadlarning har xil bo'lishiga turli illokutiv fe'llar (rozi bo'lmoq, qarshi bo'lmoq, talab qilmoq) qo'llanilishi vosita xizmatini o'tamoqda. J.Syorl pragmatik mazmunning bu asnoda namoyon bo'lishini "ifodalanish tamoyili" (the principle of expressibility) faollashuvi natijasi deb xisoblaydi. Biroq, ushbu tamoyil nutqiy muloqot matnlarida har doim ham bir yo'sinda namoyon bo'lavermaydi. Binobarin, buyurmoq, ogohlantirmoq, maslahat bermoq, taqiqlamoq, taklif qilmoq kabi birliklar nutqiy tuzilma tarkibidan joy olib, uning mazmuni oydinlashtirish uchun xizmat qila olishi ma'lum. Lekin, "Men maqtana olmayman, sendan aqlliroqman" qabilida maqtanish nutqiy harakatining qo'llanishi ehtimoldan ancha yiroq. Balki, ushbu harakatni bajarayotgan shaxsning maqtanishga haqqi bordir. U o'z suhbatdoshiga nisbatan aqlliligi haqiqatdir, lekin nutqiy muloqot odobi bunga yo'l qo'ymaydi.

Pragmatik maqsad va mazmunning ekplisit, ya'ni ochiq ifoda etilishida diqqat axborot almashinuvidan ushbu axborotni uzatish maqsadiga ko'chadi va kommunikatsiya maqsadi uzatilayotgan axborotning predmetiga aylanadi. Nutqiy harakat maqsadining ochiq bayoni turli ko'rinishdagi lisoniy birliklar vositasida bajariladi va bulardan eng asosiysi pragmatikada performativ formula atamasini olgan.

Demak, lisoniy birliklarning aniq va voqeiy muloqot sharoitida qo'llanishi pragmatik tahlil ob'ektidir. So'zlovchi va tinglovchi munosabati nutqiy muloqot sharoitida yuzaga keladi, nutqiy harakat muloqot matnini talab qiladi va shu muloqot kontekstida mazmunga ega bo'ladi. Muhit, o'z navbatida, ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, u ijtimoiy qatlam, guruhning madaniyati bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ushbu guruhdagilarni har xil anglashilmovchiliklar, ma'noviy ikkiyoqlamalik, noaniqliklarni bartaraf etish imkonini beradigan umumiy bilim zahirasi hamda muloqotning mavaffaqiyatini ta'minlovchi qoidalaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishadi. Shunday malakaga ega bo'lmagan shaxs muloqotda hech qanday samaraga erisha olmaydi. Nutqiy muloqotda axborot uzatish "yuki", so'zsiz, lisoniy birliklar "yelkasi"ga tushadi, ammo shaxslararo munosabat normasini, milliy-madaniy qadriyatlar tizimini egallamasdan turib, to'laqonli muloqotga kirishishning imkoni yo'q.

Xullas, kommunikativ faoliyat turli xildagi bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi, bulardan, masalan, lisoniy bilim til tizimi tuzilishi bilan bog'liq bo'lsa, qomusiy bilim esa voqelikni aks ettiradi va nihoyat, interaktiv bilim o'zaro munosabat asosida turgan, ijtimoiy guruh uchun umumiy bo'lgan qoidalar to'plamini bilishni taqozo etadi. Lisoniy muloqot qobiliyati deyilganda, xuddi shu bilimlar nazarda tutiladi. Interaktiv bilim muloqot ishtirokchilari uchun asosan bir xil darajada bo'lgani ma'qulroq, chunki faqatgina shu holatdagina yakdillikka, o'zaro bir-birini anglashga erishib bo'ladi.

Muloqotdoshlarning bir-birini tushunish lisoniy kommunikatsiyaning asosiy shartidir. Masalan, "*Choy tugabdi*", "*Sovuq*" jumllalarini "*Choy damla*", "*Issiqroq kiyin*" yoki "*Eshikni yop*" kabi mazmunlarida anglash uchun J. Serl aytgan shared background information, ya'ni "o'zaro umumiy va oldindan ma'lum bo'lgan ma'lumotga" ega bo'lish kerak. Ammo bunday holatda va "orqa fon"da turadigan ma'no o'z-o'zida paydo bo'lmaydi.

Asosiy muloqot birligi bo'lgan matnning umumiy tuzilishi, mazmuniy mundarijasi lisoniy birliklar kommunikativ ma'nosini shakllantiruvchi tajriba maydonidir. Yaxlit kommunikativ lisoniy tuzilma bo'lgan matnning semantik mundarijasi denotativ va signifikativ qismlardan tarkib topadi. Bulardan birinchisi matn mazmunining voqelikda kechayotgan hodisalar bilan bog'liq tomonlariga ishora qilsa, ikkinchisi esa matn yoki nutq ijodkorining nutqiy tafakkur faoliyati bilan bog'liqdir. Tver pragmatlingvistika maktabining vakili M.L. Makarov matn mazmuni tavsifiga "kommunikatorosentrik" yondashuv tarafdorlaridan biridir. Mixail Lvovich o'z ustoz professor I.P. Susov izidan borib matn mazmunining denotativ va signifikativ xususiyatlari qatoriga *propozitsiya*, *referensiya*, *eksplikatura*, *inferensiya*, *implikatura*, *relevantlik*, *presuppozitsiya* kabilarni kiritadi.

Propozitsiya axborotni to'plash va saqlashning kognitiv strukturalari qatoriga kiradi. Ammo propozitsiya hodisasi tahlilida uning axborot tashish xususiyati bilangina chegaralanib qolmaslik darkor. Zero, bu holda ushbu hodisaning kommunikativ belgilari nazardan chetda qoladi. Masalan, quyidagi nutqiy tuzilmalarni olaylik:

- a) Anvar menga kitobni berdi.
- b) Anvar menga kitobni beradimi?
- v) Anvar, menga kitobni ber!
- g) Ishonamanki, Anvar menga shu kitobni beradi.
- d) Anvar menga shu kitobni bergan bo'lishi kerak.

Bu qatordagi tuzilmalar yagona propozitsiyaga ega, ya'ni "kitob", "Anvar", "men" term va aktantlari hamda "bermoq" predikati vositasida tuzilayotgan ushbu tuzilmalarning semantik strukturasi yagona, ammo ushbu propozitsiya muloqot matnida faollashib turli pragmatik mazmun bilan boyiydi. Mazmunning kommunikativ maqsadiga binoan bunday kengaytiruvchi vositalar qatoriga modallik va zamon aspekt ko'rsatkichlari ham kiradi.

Referensiya lisoniy nomni voqelik bilan bog'lashda so'zlovchining maqsadi, lisoniy faoliyat niyati muhim o'rin egallaydi.

Relevantlik nutqiy muloqotning muvaffaqiyatli kechishini hamda muloqot matnining mazmunder shakllanishini ta'minlovchi hodisa.

Presuppozitsiya maxsus adabiyotlarda inferensiyaning xususiy ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi va bunda ifodalanayotgan fikr-hukmning haqiqiy yoki o'rinli ekanligi e'tiborga olinadi. Buning uchun esa muloqot ishtirokchilari voqelik, kechayotgan yoki xabar qilinayotgan hodisa haqida biror bir umumiy ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. R. Stolneyker ta'biricha, "presuppozitsiya talab qilinayotgan lisoniy faoliyat ijrosidan oldin implisit nazarda tutilgan propozitsiyadir" (Stalnaker 1972: 387-388; Stolkeyker 1985). Masalan, "Ahmad ikki boshli ilonni ushladi" va "Ahmad ikki boshli ilonni ushlamadi" qabilidagi gaplarni matnda qo'llash va ularni tushunish uchun so'zlovchi hamda tinglovchiga ikki boshli ilonning mavjudligi (yoki mavjud emasligi) bir xilda ma'lum bo'lishi kerak.

Presuppozitsiyaning *yashirin hukm*, *tagma'no* bilan bog'liq ekanligini bundan yuz yillar oldin olmon mantiqshunosi X. Frege aytgan edi. Haqiqatdan ham "Kumushning akasi uchta ot sotib oldi" kalimasini aytish uchun

so'zlovchi "Kumush" ismli qizning akasi Kumushning faqat birgina akasi borligini va u ot sotib olishga yetarli mablag'ga ega ekanligini ham bilishi mumkin. Bu ma'lumotlarni beruvchi presuppozitsiyalar sohibi so'zlovchidir. Gap esa Kumushning akasi nimanidir sotib olganligi, uchta hayvon sotib olinganligi, xarid qilingan hayvon ot va bu otlar ikkita emas, balki uchta ekanligi haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Bu turdagi ma'lumotlar asosida xulosaviy hukm (entailment) chiqariladi. Presuppozitsiyaga oid hukmlar esa gap mantiqiy mundariyasi bilan bog'liq emas, degan fikr ham yo'q emas (Yule 1996: 25)

Hozirgi kunda Havayda yashab ijod qilayotgan pragmlingvist Georg Yulning ushbu fikrini to'laligicha quvvatlash ma'qulmikan? Presuppozitsiyaning inson bilan, uning bilim darajasi bilan bog'liq ekanligiga shubha yo'q. Ammo ushbu presuppozitsiyaning shakllanishi va hukmning mantiqiy qatorlari paydo bo'lishida lisoniy birliklarining hech qanday ta'siri yo'q, deyishga jur'atim yetmaydi. Nutqiy tuzilma tarkibidagi birliklar va ushbu tuzilmaning strukturaviy belgilari presuppozitsiyaga oid ma'lumotni ifodalovchi vositalar xizmatini o'tishini ham hech kim inkor qilgani yo'q. G.Yulning o'zi ham presuppozitsiyaning gap tarkibidagi ma'lum lug'aviy birliklar va sintaktik tuzilmalar bilan bog'liq ekanligiga tayangan holda leksik va strukturaviy presuppozitsiyalarni farqlashni taklif qiladi (Yule 1996: 28).

Binobarin, (a) "*U chekishni tashladi*", (b) "*U shikoyat qila boshladi*", (v) "*U yana kechikdi*" gaplarinig presuppozitsiyalari (a) "*U chekar edi*", (b) "*Ilgari u shikoyat qilmas edi*", (v) "*U oldin ham kechikkan edi*" tarzida ekanligini biz faqatgina "*tashlamoq, boshlamoq*", "*yana*" lug'aviy birliklari qo'llanishiga tayanib aniqlaymiz. Strukturaviy presuppozitsiya esa quyidagi so'roq gaplarda namoyon bo'ladi: (g) «*U qachon ketdi?*» = «*U ketgan*»; (d) «*Velosipedni qayerdan sotib olding?*» = «*Sen velosipedni sotib olgansan*». Ushbu hukmlarning shakllanishi so'roq olmoshli struktura qo'llanishi bilan bog'liqdir. A Nurmonov va hammualliflari ham presuppozitsiyaning lisoniy ifodalanish shakliga – moddiy vositaga, tashqi signallarga ega ekanligini e'tirof etishadi (Nurmonov va boshqalar 1992: 115-116) va bunday moddiy vositalar qatoriga turli lug'aviy birliklar, yuklama va ko'makchi kabilarni kiritishadi. Pragmlingvistik adabiyotlarda «presuppozitsiyani faollashtiruvchilar» (presupposition triggers) deb atalayotgan (Yule 1996: 27; Levinson 1983: 179) ushbu vositalar presuppozitsiyaning «lisoniy libosi» dir, ular vositasida yashirin ma'no yanada botinlashadi.

Umuman, semantik presuppozitsiyaning qariyb barcha turlari aniq lisoniy ko'rssatkichlarga (indikatorlarga) egadir. Buni G. Yul keltirgan jadval misolida (116 betga qarang) ham ko'rish mumkin (Yule 1996: 30):

Jadval guvohlik berishicha, faktiv va nofaktiv presuppozitsiyalarda xulosaviy hukm voqeaning haqiqatan sodir bo'layotganligi yoki bo'lganligi fakt ekanligi asoslanadi hamda ushbu xulosaning ifodalanishida «*bilmoq*», «*anglamoq*», «*afsuslanmoq*», «*xabardor bo'lmoq*» kabi birliklarning tasdiq va inkor shakllari ishtirok etishadi. Kontrafaktiv presuppozitsiya esa bildirilayotgan ma'lumotning haqiqatga mos emasligiga ishoradir: «*Agarda sen mening do'stim bo'lganingda, menga yordam qilgan bo'lar eding*» = «*Sen mening do'stim emassan*». Bu turdagi presuppozitsiya asosan murakkab tarkibli nutqiy tuzilmalarda namoyon bo'ladi va «*mantiqiy me'ros*» (inheritance) qoidalariga amal qiladi. Presuppozitsiya ma'nosining bo'lakdan yaxlitga, ergash gapdan bosh gapga, dialogik tuzilma boshlanishidan keyingi bo'laklariga o'tishi umumiy kuzatilgan holdir. Tilshunoslar «presuppozitsiya» faylasuflardan o'zlashtirganligi ma'lum va falsafadan atamaning

ko'pma'noliligi, tavsifiy npaniqliklarining tilshunislikka ham ko'chishi tabiiydir. Natijada ushbu hodisa turli ko'rsatkichlarga nisbatan turlicha tasnifiy guruhlarga ajratilib kelinmoqda. Buni hatto ushbu tushunchani tilshunoslikka birinchi bo'lib kiritgan Pyotr Stronsonning qarashlarida haam ko'rish mumkin. Olim o'tgan asrning o'rtalarida (Strawson 1950; Stroson 1989) mantiqshunos B. Rasselning lisoniy birliklarning ma'nosini tavsiflovchi deskriptiv nazariyasini taftish qilayotib, gap ma'nosi va uning nutqiy qo'llanishidagi mazmuni o'rtasidagi munosabatga e'tiborni qaratadi. Shu taxlit semantik va pragmatik presuppozitsiyani farqlash yo'lidagi urinishlar boshlandi.

Olmon tilshunosi K. F. Hemferning (Hempfer 1977) gap ma'nosida kontekstdan tashqari, hech qanday nutqiy vaziyat bilan bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan xulosaviy hukmni semantik presuppozitsiya sifatida qarsh lozimligi haqidagi boshqalar tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi (V. V. Bogdanov, V. A. Zveginsev, Ye. V. Paducheva, M. L. Makarov, N. Mahmudov, A. Nurmonov va boshqalar). Darhaqiqat, presuppozitsiyaning lisoniy birlik ma'nosi bilan bog'liqligi haqida oldingi sahifalarda gapirildi. Gapning semantik tuzilishi presuppozitsiyon poydevorga ega ekanligini hech kim inkor etmaydi. Shuning uchun ham «Abbos menga kitobni berdi» «*Abbos degan yigitning borligi*» (ekzistensial presuppozitsiya) va «*Uning menga kitobni berganligi*» (faktiv presuppozitsiya) yoki bermaganligi (nofaktiv presuppozitsiya) haqida xulosaviy hukmlarning yuzaga kelishi tabiiydir. Bular oddiy mantiqiy xulosalardir.

Pragmatik presuppozitsiyaning matnga xosligi, kontekstga oidligini e'tirof etgan holda lisoniy birliklarning gapi ko'p ma'noliligi, ularning turli matn muhitlarida (nutqiy vaziyatlarda) turlicha mazmun ifodalash imkoniyatiga ega bo'lishini ham unutmash lozim. Xuddi shuningdek, nutqiy tuzilmalar ham turli mazmundagi umumiy bilim (axborot) ni ifodalash qudratidan mahrum emasdirlar. Shuning uchun ayrim tilshunoslarning nutqiy birlik sifatida qaralayotgan gap imkoniyatidagi presuppozitsiyalar (potential presupposition) to'plamiga ega va kontekstda namoyon bo'layotgani esa faollashgan presuppozitsiyadir (actual presupposition), degan fikriga (Gazdar 1980) qo'shilmoq kerak. Bu holda kontekst muloqot ishtirokchilari uchun ma'lum bo'lgan imkoniyatlar to'plamidan faqatgina birini tanlab olish imkonini beradi va bu propozitsiya barcha uchun umumiy, mazmuniy qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaydigan (noncontroversial Levinson 1983:212) axborotni ifodalashi lozim. Masalan, «*Fransiya qiroli Versalda yashamaydi*» gapi so'zlovchi va tinglovchi uchun umumiy bo'lgan «*Fransiyada qiroli yo'q*» presuppozitsiya bilimini aks ettirishi kutiladi. Ammo bunday presuppozitsiyaga ega bo'lish uchun suhbatdoshlar ikkalasi ham Fransiya siyosiy tizimi bilan tanish bo'lmoqlari kerak, aks holda kulguli holat yuzaga kelishi hech gap emas. So'z o'yini bilan bog'liq hazil va yumorli matnlar ko'pincha xuddi shu holatlarga asoslanadi.

Pragmatik presuppozitsiya hodisasi lisoniy muloqotning ramziy, marosimiy, an'anaga aylanadigan rasmiy tomonlari bilan bog'liqdir. Masalan, «*hazrat*», «*hazrati oliylari*» iboralarining qo'llanilishi bajarilayotgan muloqot faoliyatining rasmiyligi presuppozitsiyadan darak beradi. Bunda muloqot adresati xuddi shu turdagi murojaatni talab qiluvchi lavozim, daraja sohibi bo'lmog'i darkor (binobarin, «*Hazrat*» yuqori diniy lavozimdagi shaxs bo'lishi mumkin.). Muloqot jarayonida bunday talab va qoidalarga rioya qilinishini o'rganish natijasida *ritorik pragmatika* yo'nalishi shakllandi. Ushbu turdagi

pragmatik ta'limotning asosiy maqsadi muloqot tamoyillari va kategoriyalarini aniqlashdir.

XULOSA.

Pragmatika yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlardan shu xulosaga kelish mumkinki, pragmatika tilshunoslikning alohida

sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasida muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo'llash hamda ushbu

qo'llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri masalasi o'rganiladi. Ushbu qoidalar kommunikatsiya shart-

sharoitlariga nisbatan keng ma'nodagi kontekst sifatida o'rganiladi. Lisoniy hodisalarning bu yo'sindagi tahlili ularning

qo'llanishidagi u yoki bu muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar, chegaralanishlarni ham aniqlashga imkon beradi.

Lingvistik tahlilning asosiy g'oyasi ham lisonning tabiatini uning amaliy faoliyatda qo'llanishiga nisbatan yoki

boshqacha aytganda, bajarayotgan vazifasi doirasida aniqlashdir.

Har qanday nutqning yozma shakli matn tushunchasini bildirar ekan, har qanday matnda lisoniy birliklarni

muloqot jarayonida to'g'ri, o'rinli qo'llash va ushbu qo'llanilgan lisoniy birliklar muloqot ishtirokchilariga ta'sir etishi matn-

ning pragmatik xususiyatlarini ko'rsatadi. Shu jihatdan matn tahlilida pragmatikaning o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Shahriyor Safarov. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.
2. Marufjon Yo'ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, 2008.
3. Mamajonov A. Abdupattoev M. Matn sintaksisi. Farg'ona, 2002.
4. Hakimov M. K. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. Farg'ona, 2004.
5. Qo'ng'urov R. Begmatov E. Tojiyev Y. Nutq madaniyati uslubiyat asoslari. Toshkent, 1992.
6. Nurmonov A. Mahmudov N. Ahmedova A. So'lixojayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, 1992.
7. Nurmonov A. Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. O'zbek tili va adabiyoti. 2001.
8. Abduraxmonov X. Mahmudov N. So'z estetikasi. Toshkent, 1981.
9. O'rinboyev B. Qo'ng'urov R. Lapasov J. Badiiy matnning lingvistik tahlili. Toshkent, 1990.
10. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. Toshkent, 1995.